WORLD FORUM ON ACADEMIC INNOVATION AND DIGITAL LITERACY

BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA BADIIY ADABIYOTNING AHAMIYATI

(V.Bianki, N.Pavlova asarlari misolida)

Niyazova Sitora Davronovna

BuxDPI o‘qituvchi

Annotatsiya. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirish mashg’ulotlarida badiiy adabiyotdan foydalanishga qo’yiladigan talablar bugungi kun tarbiyachisidan judda katta ma’suliyatni talab qiladi. Chunki tabiatdagi voqea-hodisalar, dunyodagi global muammolarni bolalarga yetkazishda tarbiyachi ulardan o’zi xabardor bo’lishi va o’zi namuna bo’lishi kerak. Bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning ahamiyati haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: tabiat, tabiat hodisalari, badiiy adabiyot, til, nutq, peyzaj.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, tabiatni muhofaza qilish, ekologik ta`lim-tarbiya berishda ta’lim tizimining bosh bo’g’ini hisoblangan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ahamiyati kattadir. Yosh avlodni yetuk mutaxassislar, aqlan, ruhan kamol topgan, o’z Vatanini sevuvchi, uni e`zozlovchi inson qilib tarbiyalashda ushbu tizimning o’rni beqiyos. Bola shaxsini mukammal shakllanishda tabiat, unda bo’ladigan voqea-hodisalar, tabiat qonuniyatlari muhim rol o’ynaydi. Bolalar mana shular bilan tanishar ekan, ham aqlan, ham axloqan, ham jismonan, ham ilmiy dunyoqarash lari mujassamlashib, shakllanib boradi va ular tabiatini asrash, ehtiyot qilish va muhofaza qilish ruhida tarbiyalanadilar.

Bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning ahamiyati katta. Umuman, bola hayotida she’r va hikoya, ertaklarning o’rni beqiyos. Maktabgacha ta’lim muassasalarida kichik kutubxonalar tashkil etilishi ham

bejiz emas. MTTda bolalarni badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini barvaqt uyg'otish maqsadida bolalar va ota-onalar uchun zarur bo'lgan badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash ham belgilab olingan. Bolalar adabiyotida tabiat turli badiiy vositalar yordamida ifodalanadi. O'z mazmuniga ko'ra ilmiy bo'lgan tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtda san'atning bir turidir. Uning xususiyati mana shundadir.

Tabiat haqidagi bolalar kitobidan pedagog birinchi navbatda tariyaviy maqsadlarda foydalanadi. U san'atning turi sifatida faqat bolaning aqligagina emas, balki uning hissiyotiga ham ta'sir etadi. V.Bianki, M.Prishvin, N.Pavlova,

N.Sladkov tomonidan obrazli tasvirlangan bog'larning chamandek gullashi, o'tloqlarning rang-barangligi, g'arayib daraxtlar bolada tabiatga nisbatan estetik

munosabatni, uni sevishni shakllantirish imkonini beradi. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilishga qiziqishni, kuzatuvchanlikni bilimga bo'lgan havasni tarbiyalash uchun boy material beradi. U bolalar oldiga yangi savollarni qo'yadi, bolalarni atrofdagi tabiatga diqqat bilan qarashga majbur qiladi.

Tabiat haqidagi bolalar kitobi tarbiyachining qo'lida katta bilish qiymatiga egadir. U kuzatilayotgan joydan chetga olib chiqadi va shu orqali bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi, bolani bevosita idrok etolmaydigan hodisalar bilan tanishtiradi. Kitob yordamida boshqa iqlim zonalaridagi tabiat hodisalari, hayvon

va o'simliklarning hayoti haqida bilish, predmet va hodisalar haqidagi mavjud tasavvurlarni aniqlash hamda konkretlashtirish mumkin. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda jonsiz tabiat hodisalarini ochib beradi, tabiatda mavud bo'lgan aloqa va

munosabatlarni aniqlashga yordam beradi. Jahon adabiyotida tabiatshunoslik kitoblarining asoschilari V.V.Bianki va M.M.Prishvinlardir. V.Biankining kitoblari bolalarni tabiatni ilmiy ko'rishga o'rgatadi. V.Biankining

yaratgan har bir hikoya, ertagi asosida tabiat haqida aniq fakt, aniq ilmiy ma'lumotlar yotadi. V.Biankining asarlari tabiatning murakkab hodisalarini bolalarga qiziqarli shaklda ochib berishga, tabiat dunyosida mavjud

bo'lgan qonuniyatlarni: organizmning atrof-muhitga moslashuv shakllarining xilma-xilligini, muhit va organizmning o'zaro ta'siri va shu kabilarni ko'rsatishiga

imkon beradi. Masalan, «Birinchi ov» ertagida V.Bianki yumor vositasida kichkina

bolalarni tabiatning murakkab hodisalari bilan isnonarli tanishtiradi, hayvonlar himoyasining xilma-xillik formalarini ko'rsatadi. V.Biankining «Bu kimning oyoqlari» «Kim nima bilan sayraydi?» «Kimning burni yaxshiroq» «Dumlar» ertaklari qiziqarlidir. Ular hayvonning u yoki bu organining tuzilishi u

yashaydigan muhit, hayotiy sharoitlarga bog'liq ekanligini ochib berish imkonini

beradi. Tarbiyachi V.Biankining asarlaridan bolalarga tabiat dunyosi doimiy o'zgarishda, rivojlanishda ekanligini ko'rsatish uchun foydalaniladi. V.Biankining

«O'rmon gazetasi» «Bizning qushlarimiz» «Chittakning kalendari» asarlaridan bolalar jonsiz tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni bilib oladilar. Bolalar tabiatshunoslik kitoblari tarbiyachinig barcha yosh guruhlaridagi ishlarida foydalidir. Biroq badiiy so'z bolalarning bevosita kuzatishlarini



ustalik
bilan biriktirish lozim. Tabiatshunoslik kitobidan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan bo'ladiganishda turli maqsadlarda foydalaniladi. Bolalar oldiga vazifa qo'yish, bo'lajak kuzatishga qiziqish uyg'otish uchun kuzatishdan oldin kichik hikoya , ertak aytib berish mumkin. Erta bahorda tuyatovonning birinchi shoxchalari ko'ringanda
tarbiyachi bolalarga N.M. Pavlovaning «Erta bahor» hikoyasidan bu o'simlikning
qisqacha tasvirini o'qib berish mumkin. Bunday o'qishdan so'ng bolalarda tuyatovonga qiziqish o'sadi, ularning diqqati nimani va qanday kuzatish lozimligiga yo'llanadi. N.M. Pavlovaning «Buta ostida», «Bulutdek» asarlari ham
shu maqsadda o'qiladi.

Bolalarni qorning himoya qiluvchi xususiyatlari va o'simliklarning qishdagi
holati bilan tanishtirishdan oldin «O'tloqda qor ostida» hikoyasini o'qib berish mumkin. Bolalar o'simliklar qishda halok bo'lmasligini, faqat o'sishdan to'xtashlarini bilib oladilar. Bu hikoyadan olingan ma'lumotlarni tekshirish sayrlar
vaqtidagi kuzatish uchun vazifa bo'lib qoladi. Kuzatishlar jarayonida bolalarga maqollar, matallar, topshiriqlar, kichik she'rlar
tavsiya etiladi. Bularning obrazli tili hodisaning xususiyatlarini, predmetning ma'lum sifatlarni ajratib ko'rsatish, tabiatni estetik idrok etishni kuchaytirish imkonini beradi. Qishda muz, qor, ob-havoni kuzatayotganda tarbiyachi topishmoq
va maqollardan foydalanadi.



Kuzatishlar jarayonida tabiatshunoslikka oid adabiyotlardan foydalanish
bolalarga o’rab turgan tabiatni dunyosini to’g’ri idrok etish va tushunishlarida, uni
o’z bilimlari bilan bog’lay olishlarida yordam beradi. Bu maqsadda V.V.Biankaning “O’rmon gazetasi”, N.Sladkovning “Ezma zag’zg’onlar”dan olingan qisqa ma’lumotlar foydalidir. Tabiatshunoslik kitoblarni tarbiyachi bolalarga kuzatishdan keyin ham o’qib beradi. Bunday holatda badiiy asarlar ko’rilganlarga yakun yasash, to’ldirish, kuzatishni chuqurlashtirishga, bolalar diqqatini tabiat hodisalarini kelgusida ham idrok etish uchun yo’llashga yordam beradi.

Bolalar tabiatshunoslik kitoblarini o’qish, uni o’qib bo’lgandan keyingi suhbat tabiat bilan tanishtirishning mustaqil metodi ham bo’lishi mumkin. Kitob
o’qilgandan so’ng o’tkaziladigan suhbatda bolalarga asar ma’nosini tushunishlarida, uning mazmunini to’liqroq va chuqurroq o’rganib olishlarida yordam berish zarur. Shuning uchun suhbat o’qilgan tekstni gapirib berish asosida
tuzilmasligi kerak. Bu o’rinda asosiy e’tiborni hodisalar o’rtasidagi aloqani ochib
berishga, faktlarni anglashga qaratish lozim. Ilgari egallangan bilimlar zapasi bolalarning yangi axborotlarni egallab olishlariga ta’sir etadi. Mna shundan kelib
chiqib, suhbatda shaxsiy bilim bilan yangi bilimlar o’rtasidagi aloqani o’rnatish zarur. Suhbatga qo’yiladigan so’zsiz talab –bolalarda badiiy obrazlardan olingan
taassurotlarning bevositaligini saqlab qolishdir. Bunga savollarni qahramon

shaxsi

orqali berish, savollarda hikoya, ertak obrazlarini qo'llab erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хасанова Г. К. Педагогические особенности формирования творческой активности учащихся в начальном образовании //Научный журнал. – 2019. – №. 6 (40). – С. 86-87.
2. Хасанова Г. К. Цель использования электронных образовательных ресурсов в системе обучения и образования //Научный журнал. – 2019. – №. 6 (40). – С. 84-85.
3. Хасанова, Г. К. "ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ЛОГИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ." *Проблемы науки* (2021): 90.
4. Хасанова Г. К. ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ДОУ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА И СУЩНОСТЬ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 173-181.
5. Хаитова Н. И., Хасанова Г. К., Мухаммедова М. Ш. ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧАЩИХСЯ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ //Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии. – 2016. – №. 3-1. – С. 148-153.
6. Хасанова Г. К. Интеграция предметов в современной школе как педагогическое явление //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 127.
7. Хасанова Г. К. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СТАНОВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ ГРАМОТНОСТИ ДЕТЕЙ

ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В УЗБЕКИСТАНЕ //ББК. – 2019. – Т. 71. – С. 50.

8. Kasimovna K. G. Pedagogical Research Methods of Training in Higher Educational Establishments: A Comparative Analysis //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 250-255.
9. Nizomiddinovna H. N. et al. Tarbiyachi Faoliyatida Nutqiy Etiketning O ‘Rni //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 5-9.
10. Nizomiddinovna H. N. et al. TARBIYACHI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O’RNI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 88-92.
11. Nizomiddinovna H. N. et al. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O’YIN ORQALI TIL VA NUTQ TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH //БОШҚАРУВ ВА ЭТИКА ҚОИДАЛАРИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 83-87.
12. Nizomiddinovna H. N. et al. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLA TARBIYASINING MAQSAD VA VAZIFALARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 32-36.
13. Nizomiddinovna H. N., Olimovna M. M. MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI RAVON NUTQQA O’RGATISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 93-97.
14. Eshova D. PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE TYPES OF FATIK COMMUNICATION AND ABOUT COMPLIMENTS

//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 21. – №. 21.

15. Hamroyeva N. Комплимент и его метакоммуникативные функции //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 8. – №. 8.
16. Hamroyeva N. НОРМЫ РАЗГОВОРНОЙ ЭТИКИ И ДОБРОТЫ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 8. – №. 8.
17. Qo'ldoshev, R. (2022). Детская лень как психолого-педагогическая проблема. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 22(22).
18. Qo'ldoshev R. BOSHLANG'ICH SINF CHAPAQAY O'QUVCHILARGA BERILADIGAN PEDAGOGIK YORDAM VA YOZUVGA O'RGATISH JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
19. Avezmurodovich Q. R., Oybekovna N. D. BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH. QAYTA HIKOYALASH VA BAYON TURLARI. – 2022.
20. Qo'ldoshev R. Maktab o 'quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
21. Қўлдошев Р. А. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЁЗУВГА ЎРГАТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1120-1129.
22. Qo'ldoshev R. Left-handedness and the reasons for its occurrence

//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

23. Qo'ldoshev R. Кӯмаки педагогӣ ба кӯдакони чапдаст дар соли якуми хониш. – GlobeEdit, 2020.
24. Qo'ldoshev R. CHAPAQAY O‘QUVCHILARDA YOZUV KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
25. Azimov Y., Qo'ldoshev R. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari. – GlobeEdit, 2020.
26. Rustambek Q. O. L. Birinchi sinf chapaqay o ‘quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
27. Rustambek Q. O. L. Birinchi sinf chapaqay o ‘quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
28. Qo'ldoshev R. Кӯмаки педагогӣ ба кӯдакони чапдаст дар соли якуми хониш.–GlobeEdit, 2020. 13. Qo'ldoshev RA Left-handed children and the learning process //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume. – Т. 5. – С. 277-281.
29. QO R. LDOSHEV //Chapaqay bolalarni maktabga qanday tayyorlash kerak. – С. 145-147.
30. Qo‘ldoshev R. A., BIRINCHI S. C. O. Q. M., MOSLASHISHI M. M. D. P. Y. MAZMUNI//Pedagogik mahorat. – 2020.